

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Sanginova Gulnoza

Qo'qon universiteti

Ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

Abdullajonova Barnoxon Qahramonjon qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-24 guruh talabasi

abdullajonovabarnoxon8@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20378956>

### Annotatsiya

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlikka bo'lgan qiziqishni shakllantirish, ularning nutq, tafakkur, diqqat va tasavvur rivoji uchun asosiy vositalardan biridir. Shuningdek ularda to'g'ri tovush talaffuzini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni vaqtini ham to'g'ri tashkil etish kerak. Masalan, bolani tinchlansin deb qo'lga telefon berish, uning sog'lig'iga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

### Kalit so'zlar

Maktabgacha ta'lim, kitobxonlik, ota-onalar, ertak kitoblar, syujetli-rolli o'yinlar, multimedia, bolalar rivoji, ijodiy fikrlash, nutq rivoji.

### Kirish

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev yoshlarni kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularning kitob bilan do'st bo'lishini ta'minlash hamda aholining kitobxonlik saviyasini yanada yuksaltirishga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi. Yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik hamda milliy va jahon adabiyotlarini mutolaa qilish madaniyatini yuksaltirish, talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bugungi kunda ustuvor vazifaga aylanmoqda. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti va axborotlashuv jarayonining jadallashuvi yosh avlodning intellektual hamda ma'naviy rivojiga alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Kitob bolaning dunyoqarashini kengaytiradi, nutqini boyitadi, tafakkurini rivojlantiradi hamda estetik didini shakllantiradi. Bugungi kunda yosh avlodni intellektual, ma'naviy va axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Ushbu jarayonda maktabgacha yosh davri alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu davrda bolaning shaxsiyati, nutqi, tafakkuri va kitobga bo'lgan munosabati shakllanadi. Kitobxonlik madaniyatini erta yoshdan shakllantirish bolaning kelgusidagi ta'limiy muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.1. (Xilola Ochilova Sheraliyevna Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti “Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi”)

Jamiyatimizda bugungi kunda kitobxonlik masalasiga katta e'tibor berilyapti. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13- sentabrdagi PQ -3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish ,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to'g'risida”gi qarori bunga yaqqol misol qilishimiz mumkin.Ushbu qaror doirasida kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish boyicha kompleks chora –tadbirlar dasturi tasdiqlandi2.( ANNOTATION OF MASTER'S DISSERTATION By ShohidaYusupova on).

### **Oilada bolani kitob o‘qishga qiziqtirish**

Farzand tarbiyasi eng mas’uliyatli amallardan bo‘lib insondan sabr-toqat, ulkan mehr-muhabbat talab qiladi. Har bir ota-ona farzandini o‘qimishli, bilimdon bo‘lishini istaydi, ammo barcha bolalar ham kitob o‘qishni yoqtirmaydilar. Shunga qaramay, har qanday bolani kitob mutolaasiga qiziqtirish mumkin.

Bunga qanday erishish mumkin?

Farzandlaringizga kichikligidan kitobni tanitishingiz zarur. Ota-ona farzandiga yosh bolalik davridan boshlab, bolalar kitobchalarini o‘qib berishi, keyinchalik yoshiga mos bo‘lgan adabiyotlarga o‘tishi kerak bo‘ladi. Uyqudan oldin kitob o‘qib berayotgan ota-onasining ovozini eshitish bolaga rohat bag‘ishlaydi va shu bilan bir qatorda bolada kitobga bo‘lgan muhabbat shakllanib boradi.

O‘zingiz o‘rnak bo‘ling! Bolalar ota-onadan namuna oladilar. Agar siz muntazam kitob mutolaa qilsangiz, boshqa oila a‘zolaringiz bilan turli kitoblar to‘g‘risida tez-tez suhbatlashsangiz, kitobdan zavq olganingizni ko‘rsatsangiz, farzandingizga o‘rnak bo‘lasiz. Kitob o‘qish asta-sekin farzandingizning ham sevimli mashg‘ulotiga aylanib boradi.

Bolalarni kitobga qiziqtirish uchun ularning yoshiga mos narsani taklif qiling. Agar farzandingiz biror multfilmni yaxshi ko‘rsa, o‘sha film uchun asos bo‘lgan kitobni o‘qishni tavsiya qiling. O‘qish davomida film bilan kitob o‘rtasidagi farqlarga e‘tibor qilishini ham eslatib qo‘ying.

Ba‘zi bolalar badiiy adabiyotlarni yoqtirishmaydi. Ularga turli xil ensiklopediyalar qiziqroq. Bola nimani xohlasa, o‘shani o‘qishiga qo‘yib bering.

Shuningdek, farzandingiz bilan kitob do‘koniga birga kiring. Farzandingiz o‘zi uchun kitobni o‘zi tanlasin. Bu unda mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi.

Agar farzandingizda doimiy ravishda kitob o‘qish ko‘nikmasini shakllantirishni istasangiz, haftasiga kamida bir marta kutubxonaga olib boring. Shoshmasdan kitoblarni birgalikda ko‘rib chiqing, birgalikda tanlang, birgalikda o‘qing. Uyda o‘qish uchun ham kitoblar oling. Bundan tashqari, kitoblarni solish uchun “kitoblar sumkasi”ni ham olib bering.

Vaqtingizni ayamasdan, farzandingizga har kuni kitob o‘qib bersangiz, farzandingiz ham asta-sekin muntazam va mustaqil tarzda kitob mutolaa qiladigan bo‘ladi. Kitobxonlik uning hayotida an’anaga aylanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida: bolalar adabiy asarini o‘qish va tinglash jarayoni, bola va kitob o‘rtasidagi aloqa jarayoni, maktabgacha yoshdagi yoshga oid adabiy bilimlarni egallash jarayonlari jihatlari bo‘lgan jarayonlarni o‘rganish uchun haqiqiy ehtiyoj mavjud. Mutolaa madaniyati juda keng ma’nodagi tushuncha bo‘lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishib, kitob bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo‘lish, shuningdek kitobdan to‘la ravishda foydala bilishda yordam beruvchi ko‘nikmalardan iborat.

Sohibqiron Amir Temur ta’biri bilan aytganda, “Kitob (bitig) barcha bunyodkorlik yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir”. Shu ma’noda, shaklidan qat’i nazar, barcha kitoblar milliy o‘zligimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etishga xizmat qilishi ayni muddao. Barchamiz yoshligimizdan turli ertaklarni eshitib va o‘qib katta bo‘lganmiz. Bolaga yaxshi xislatlarni so‘z bilan singdirish juda yaxshi samara beradi. Shuning uchun farzand tug‘ilishi bilanoq unga alla aytiladi. Bolaga kechki uyqudan oldin turli ertaklar aytib, kitoblar o‘qib berish asnosida uning mutolaaga bo‘lgan qiziqishi oshadi. Bola kitobni sevishi uchun ota-onasining mutolaaga mehri baland bo‘lishi lozim. Buning uchun uyda kitob ko‘p bo‘lsa, ayni muddao. Agar uyga kitob olib kelib, oilada o‘qilsa, farzandlar, albatta, bu an’anani davom etiradi. Kishi bolalikdan kitob o‘qishni odat qilmas ekan, keyinchalik ham kitobga qiziqishi

qiyin. Shuning uchun, bizning vazifamiz bolalar qalbida unga mehr uyg'otishdir. Kitobxonlikni oilamizdan boshlashimiz kerak. O'sib kelayotgan bolaning sog'lom voyaga etishi va ma'naviy etuk bo'lishida oilaviy muhit muhim o'rin tutadi.

Darhaqiqat, har bir ota-ona farzandi sog'lom bo'lib voyaga etishi, o'qishi, hunar o'rganishi, sport bilan shug'ullanishi, ilm olishi uchun doimiy harakatda bo'lmog'i lozim. Komil farzandni tarbiyalash uchun hech qanday jihatni nazardan chetda qoldirmaslik zarur. Unutmaylik sog'lom bola ona Vatanning ishongan tayanchidir. Xonadonlarimizda farzandlarimiz zo'r qiziqish bilan o'qiydigan “O'zbek xalq ertaklari”, “Alpomish”, “Go'ro'g'li” dostonlari, “Odam va olam ensiklopediyasi”, “Bolalar ensiklopediyasi” va jahonga mashhur kitoblar o'rin olsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bolaning aqliy rivojlanishi haqida qayg'uradigan ota-ona unga albatta kitob o'qib berishi kerak ekan. Bolaga har kuni yotishdan oldin baland ovozda kitob o'qib berilsa, uning aqliy rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir etilar ekan.<sup>3</sup>( G'uzorova Sabina Husan qizi Buxoro viloyati Shofirkon tumani 26- son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi <https://doi.org/10.5281/zenodo.14282859>).

Kitob o'qishga bolalarni qiziqtirishda pedagoglar bir qancha uslublardan foydalanishlari mumkin. Har bir uslub o'ziga xos tarzda bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

**Interaktiv uslub:** Bu uslubda pedagog kitobni bolalar bilan birgalikda o'qib, ularni voqealarni muhokama qilishga jalb etadi. Bolalarga savollar berish, ularning fikrlarini so'rash va o'zlarining tushunchalarini ifodalashlariga imkoniyat yaratish interaktiv uslubning asosiy xususiyatidir. Bu uslub bolalar o'rtasida muloqotni rivojlantiradi va kitob o'qishga qiziqish uyg'otadi.

**Kreativ uslub:** Pedagog bolalarni hikoya qilish yoki ertak yaratishda faol ishtirok etishga undashi mumkin. Masalan, bolalar o'qigan hikoya yoki ertak asosida yangi yakun yoki boshqa voqea yaratishga harakat qilishlari mumkin. Bu uslub bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

**Rolli o'yinlar:** Bolalar o'qigan hikoyalarni o'ynash orqali hikoyaning muhitini va personajlarini tushunishga, voqealarni jonlantirishga yordam beradi. Rolli o'yinlar orqali bolalar kitobning mazmuniga chuqurroq kirib boradilar va o'qish jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladilar.

**Teatr uslubi:** Bolalar o'qigan kitob yoki hikoyalarni sahnalashtirish orqali o'qish jarayonini jonlantiradilar. Pedagog bolalarni rollarga bo'lib, ular o'qigan voqeani sahnada namoyish qilishga undaydi. Bu uslub bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi va kitobga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

**Ijtimoiy o'yinlar:** Bolalarga o'qigan kitoblari asosida ijtimoiy vaziyatlarni yaratib, bu vaziyatda qanday qarorlar qabul qilishlarini so'rash. Masalan, "Agar sen o'sha qahramon bo'lsang, nima qilarding?" kabi savollar orqali bolalarga muayyan vaziyatlarga javob berish imkoniyatini yaratish.

Pedagoglar o'qishga qiziqtirishda amaliy misollarni ko'rsatishlari mumkin. Misol uchun, bolalar bilan birgalikda kitobni o'qib, hikoyaning qahramonlarini tasvirlash, har bir qahramonning hissiyotlarini va ularning qarorlarini tahlil qilish bolalar uchun foydali bo'ladi. Pedagog kitobdagi voqealarni bolalar bilan muhokama qilib, ular bilan birgalikda kitobning asosiy mazmunini tushuntirishi mumkin. Tarbiyachi pedagoglar o'z guruhidagi bolalarning yoshiga va qiziqishlariga mos kitoblarni tanlab berishlari kerak. Ertaklar, hikoyalar va obrazli she'rlar bolalarning diqqatini jalb etad. Kitoblarni o'qish jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish muhimdir. Tarbiyachi o'qiyotgan kitobdagi voqealarni bolalar bilan muhokama qilib, ularga savollar berish, ulardan fikrlarini

so'rash orqali o'qish jarayonini jonlantirishi mumkin. Tarbiyachi o'zi ham kitob o'qishi va bolalar bilan o'qish jarayonida faol ishtirok etishi kerak. Bolalar o'z pedagoglarini ko'rib, kitob o'qishning qanchalik qiziqarli ekanligini tushunadilar. Tarbiyachi pedagog bolalarni hikoyalar yaratishga undashi mumkin. 4. (To'raqulova Jumaxon Mustafoulovna Uchko'prik tuman, 5-DMTT direktori <https://doi.org/10.5281/zenodo.15296197>).

**Bolalik davri** – inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Bu davrda bolaning fikrlash doirasi, tasavvuri va axloqiy qadriyatlari shakllanadi. Shuning uchun ota-onalar farzandlarining rivojlanishi uchun to'g'ri vositalarni tanlashi juda muhim. Kitoblar va multfilmlar bolalarning ta'lim va tarbiyasida nafaqat samarali, balki qiziqarli hamkorlari hisoblanadi. To'g'ri tanlangan kitob va multfilmlar bolalarga nafaqat bilim beradi, balki ularning dunyoqarashini kengaytirib, yaxshi va yomonni ajratishni o'rgatadi. Ushbu maqolada bolalar uchun eng foydali kitoblar va multfilmlar haqida batafsil ma'lumot beramiz va ota-onalarga tanlashda foydali maslahatlar taqdim etamiz.

Bolalar uchun tavsiya etiladigan kitoblar

Bolalarning yoshiga mos kitoblar tanlash ularning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Quyida yosh guruhlariga mos tavsiyalarni keltiramiz:

### **3-6 yosh:**

- **"Ertaklar" to'plamlari:** Mashhur xalq ertaklari ("Bo'g'irsoq", "Uch do'st") bolalarning tasavvur dunyosini rivojlantiradi. Masalan, "Uch do'st" orqali bolalar do'stlik va bir-biriga yordam berishning ahamiyatini o'rganadilar.
- **"Kichkintoylarga qiziqarli hikoyalar":** Rang-barang rasmlar bilan boyitilgan qisqa hikoyalar bolalarning qiziqishini orttiradi va matnni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi.

### **7-10 yosh:**

- **"Alisa mo'jizalar mamlakatida" (Luis Kerroll):** Fantaziya va ijodkorlikni rivojlantiradi. Alisaning turli qiziqarli voqealar ichida o'z o'rnini topishi bolalarga tasavvur dunyosini boyitishga yordam beradi.
- **"Sherlok Xolms sarguzashtlari" (Artur Konan Doyl):** Bolalarni mantiqiy fikrlashga va mantiqiy bog'lanishlarni ko'rishga o'rgatadi.

### **11-14 yosh:**

- **"Harri Potter" (J. K. Rouling):** Ushbu kitob bolalarga jasorat, do'stlik va mehr-muhabbatning muhimligini o'rgatadi. Harri Potterning qiyinchiliklar bilan kurashib, do'stlari yordamida muvaffaqiyatga erishishi bolalarga ilhom beradi.
- **"Kapitan Grant bolalari" (Jules Verne):** Sarguzashtlar va ilmiy kashfiyotlar orqali bolalarning bilim va dunyoqarashini kengaytiradi.

### **Ma'rifiy va axloqiy kitoblar**

- **"Donishmandlardan hikoyatlar" (Xalq ertaklari):** Har bir hikoya axloqiy xulosa bilan yakunlanib, bolalarga hayotdagi muhim qadriyatlarni o'rgatadi. Masalan, "Mehribon qushcha" hikoyasi bolalarni mehribonlikka undaydi.
- **"Oltin qoidalar" (ta'limiy kitoblar):** Hayotdagi muhim saboqlarni o'zida aks ettirgan hikoyalar orqali bolalarga odob-axloqni tushuntiradi.

### **Milliy adabiyotlar**

- **"Chol va bola" (Xudoyberdi To'xtaboyev):** O'zbek xalqining urf-odatlarini va qadriyatlarini o'rgatish bilan birga bolalarda qiziqish uyg'otadi.
- **"Sehri qalpoqcha" (Xudoyberdi To'xtaboyev):** Bolalarga milliy merosni qadrlashni o'rgatadi va ertaklar orqali ma'naviy dunyosini boyitadi.

### **Xulosa**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda tarbiyachi pedagoglarning o'rni katta. Ular bolalarga kitoblarni sevdirish, ularni o'qishga qiziqtirish va bu jarayonda to'g'ri yo'lni tanlashda muhim rol o'ynaydi. Pedagoglar o'z faoliyatida turli metod va uslublardan foydalanib, bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini uyg'otishlari zarur. Shunda bolalar kitob orqali o'z dunyoqarashlarini kengaytirib, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishlarini amalga oshiradilar.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Xilola Ochilova Sheraliyevna Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti “Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi”.
2. ANNOTATION OF MASTER'S DISSERTATION By ShohidaYusupova on.
3. G'uzorova Sabina Husan qizi Buxoro viloyati Shofirkon tumani 26- son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi <https://doi.org/10.5281/zenodo.14282859>.
4. To'raqulova Jumaxon Mustafqulovna Uchko'prik tuman,5-DMTT direktori <https://doi.org/10.5281/zenodo.15296197>